



SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 1

JANUARY 2022

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 1

JANUARY 2022

76.	Xolilla Sariyevich Xolmuratov, Zoya Madrimovna Xusainova Narimon Shomurodovich Duschanov, Rustam Abduraimovich Abdullayev O'g'iljon Sadulla qizi Yangibayeva Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar	491
77.	Ugiloy Xolmurodovna Ramazonova, Maxliyo Jamilovna Esanova An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni	496
78.	Shokir Madrimovich Matnazarov, Dilfuza Karimboyevna Rozimova Muhayyo Murodboy qizi Rajabboyeva, Xurshida Amatboyevna Rajapova Maktabda o'qitish metodikasi	502
79.	Oysha Yuldashevna Xo'jamuratova, Sherzod Madaminovich Rajabov Yulduz Egambergan qizi Allaberganova, Hilola Xamid qizi Yuldasheva Farhod Rahmonbergonovich Komilov O'quvchilarini kasbiy o'z-o'zini tayyorlayishida qishloq maktabining roli	506
80.	Ro'za Komiljonovna Matyaqubova, Roxatoy Rajabboyevna Davlatova E'tibor Baxrambayevna Davlatova, Nafisa Durdiboyevna Qutlimuratova Shaxnoza Ilxomovna Ibragimova O'smirlilik davridagi maktab o'quvchilarini tarbiyalashning ba'zi xususiyatlari	513
81.	Nasiba Shamuratovna Ro'zimova, Shadmonoy Jabberganovna Boltayeva Gulbahor Jabberganovna Boltayeva, Surayyo Sultanboyevna Sultanboyeva Muyassar To'rayevna Ermetova Munitsipal ta'lim tizimi sharoitida ta'lim xizmatlarining sifati: muammolar, istiqbollari	520
82.	Dildora Abduvosiqovna Nazarova Fikrni ilmiy va rasmiy uslubda ifodalash xususiyatlari	524
83.	Шерзод Истамович Шамсиев Новые подходы к подготовке молодых специалистов - учителей музыки, разработка уроков музыки	528
84.	Комил Буронович Холиков Модель многоканальной системы учителя музыки по дирижированию	534
85.	Шерзод Истамович Шамсиев Молодой специалист - учитель музыки, как руководитель хорового коллектива в общеобразовательной школе	540
86.	Комил Буронович Холиков Музыкальная модель, эффективный численный ритм и программный комплекс для концентрации вокального пения	546
87.	Комил Буронович Холиков Развитие музыкального материала контрапунктических голосах произведения	553
88.	Комил Буронович Холиков Музыкальное движение под действием внутренних сил гармонии как маятник всего произведения	559
89.	Комил Буронович Холиков Роль гармонии в построении музыкального произведений	565
90.	Нурбек Эркинович Рахматов Аккорды в композиции связанным с выбором уравнений аккордов, их уточнениями	572
91.	Комил Буронович Холиков Элементы музыкальной логики, фундамент музыкального построения	578
92.	Зилола Бахтиёровна Қўлдошева Организация интерактивных уроков по географии на базе образования STEAM	584
93.	Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике	589

An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni

Ugiloy Xolmurodovna Ramazonova
Maxliyo Jamilovna Esanova
Buxoro davlat universiteti

Annotasiya: Maqolada maqomlarning kuy-ohanglari har bir xalqning o'ziga xos musiqa boyliklari zaminida, san'atchi sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelganligi xaqida bayon etiladi. O'tmishdagi musiqiy-nazariy risolalarda "O'n ikki maqom" / "Duvozdah maqom" / tizimi va unga kirgan 24 sho'ba 6 ovoza haqida mulohaza yuritiladi/ Hozirda ba'zi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'lib kelayotgan bir qaancha jumboqlar bor. Ustoz sozanda va xonandalar keying avlodlarga ko'z qorachig'idek, asrab-avaylab, bizgacha etib kelgan. Maqom namunalari hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng zo'r, beqiyos qiymatga ega bo'lgan musiqa san'atining boyliklari sifatida chinakkam xalq mulkiga aylanganligi xaqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maqom, musiqa, meros, ma'naviy mulk, cholg'u qismi, ashula qismi, turkumli musiqa, O'n ikki maqom, parda, ovoz.

Role of standards in the development of traditional singing

Ugiloy Kholmurodovna Ramazonova
Makhliyo Jamilovna Esanova
Bukhara State University

Abstract: The article describes how the maqom melodies were formed on the basis of the unique musical wealth of each nation by artists, musicians, singers and composers in the process of long historical and cultural development. Earlier in musical-theoretical brochures the system "Twelve statuses" / "Twelve statuses" and its 24 branches and 6 voices were discussed, there are riddles. Master musicians and singers are passed on to future generations like the apple of an eye. The status quo underlines the fact that today it has become a true national treasure as one of the richest and most priceless treasures of musical art in the world of sophistication.

Keywords: poppy seeds, music, heritage, spiritual heritage, instrumental part, singing part, musical part, twelve maqoms, sound.

Maqomlar ko'pchilik Sharq xalqlari musiqa merosida mavjud. Ular shu xalqlar milliy musiqasining asosini tashkil etadi. Maqomlar nazariy va amaliy asoslarga ega

bo'lib, mazkur xalqlar musiqa san'atining ustozona uslubidagi namunasidir. Maqomlar xususan o'zbek va tojik xalqlarining ma'naviy mulki bolmish, Shashmaqom ko'p asrlar davomida bu sohada olib borilgan ijodiy izlanishlarning samarasidir. Ustoz sozanda va xonandalar keying avlodlarga ko'z qorachig'idek, asrab-avaylab, bizgacha etib kelgan. Maqom namunalari hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng zo'r, beqiyos qiymatga ega bo'lgan musiqa san'atining boyliklari sifatida chinakkam xalq mulkiga aylandi.

Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, o'tmish bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Keng ma'noda esa maqomlar xalq musiqasi qomusidir. Chunki ularda xususan Shashmaqomda, O'zbek xalqi musiqasi xos ohanglar ritmik xususiyatlar, doira usullari, she'riyat xalq ashula yo'llarining bo'g'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar o'z ifodasini topgan, shu sababli, hozirda maqom masalalarinig o'rganishga, maqom ijrochiligidagi uslublarni aniqlash va o'zlashtirish ishiga jiddiy ahamiyat bermogda.

Maqom nima? Maqom arabcha "joy", "o'rin" musiqa istilohida esa cholg'ular hosil etiladigan joy, ya'ni parda ma'nosini bildiradi. Maqom muayyan pardadan boshlanadigan lad-tonallikni hamda ularga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi. "G'iyosul-lug'at" izohli qomusining muallifi Muhammad G'iyosuddin o'tmish va zamondosh olimlarining mulahazalariga tayanib, maqom iborasini quyidagicha ta'riflagan; "Maqom-pardai surudro go'yand", yani Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi. Bu yerda kuy va ashulalar boshlanadigan parda hamda ular harakat etadigan lad tovush qatorlari hisobga olingan, albatta.

Maqom so'zi kuylarning lad hamda tonallik tushunchalari bilan bog'liq ekan, ularning yuzaga kelish tarixi qadim zamonlarga, kasbiy musiqa paydo bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Maqomlarning kuy-ohanglari har bir xalqning o'ziga xos musiqa boyliklari zaminida, san'atchi sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan. Lekin, maqom atamasi Sharq xalqlari musiqasida taxminan IX asrlardan qo'llana boshlagan. Chunki, VIII-X asrlarda yunon olimlari, ayniqsa Evklid, (Uklidis), Pifagor (Fisog'urs), Aristotel (Arastu) kabi olimlarning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan asarlar arab tiliga yarjima qilinib, ularga sharhlar yozila boshlandi. Maqomlarning nazariy masalalari qayta ishlab chiqildi. Ammo bundan "arab va boshqa Sharq xalqlarida IX asrgacha musiqa nazariyasi bo'lmagan" - degan xulosa chiqarish yaramaydi. Yaxyo bin Ali Yahyo Abu Mansur (vaf. 912y.) ning musiqaga doir asarida arab va boshqa musulmon Sharq xalqlarida yunon musiqa nazariyasi ta'sir ko'rsatmasdan ancha burun erli xalqlarning o'z musiqa nazariyasi mavjud bo'lgani haqida so'z yuritiladi. Lekin, Beruniyning yozishicha, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy yozma obidalari arab istilosi davrida bosqinchilar tomonidan yoqib, yo'qotilib yuborilgan edi. Shu sababli bevosita musiqaga doir madaniy yodgorliklar ham bizgacha etib kelmagan.

Musiqaga doir eski manbaalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy, nazariy va amaliy tomonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan al-Kindiy, Farobiy, al-Xorazmiy, ibn Sino, al-Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy, Husayniy, Kavkabiyy, Darvishali Changiy singari buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlar berilgan. Shuni qayd etish lozimki, musiqa nazariyasi hamma Sharq xalqlarida, ba'zi tafovutlarni hisobga olmaganda, deyarli bir xil mazmunda bo'lgan. Hatto maqomlar, sho'balar nomi ham o'xshash edi. Lekin, ularning kuy-ohanglari o'ziga xos bo'lib, bir-biridan tubdan farq etgan. O'tmishdagi musiqiy-nazariy risolalarda "O'n ikki maqom" / "Duvozdah maqom" / tizimi va unga kirgan 24 sho'ba 6 ovoza haqida mulohaza yuritiladi/ Hozirda ba'zi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'lib kelayotgan bir qancha jumboqlar bor. Masalan: "O'n ikki maqom" O'rta Osiyoda paydo bo'lganmi? Uning kuy va ashila yo'llari bu erda ijro etilganmi? "O'n ikki maqom" ning Shashmaqomga qamday aloqasi bor? va h.k.

Ma'lumki, Amir Temur davridan boshlab to XVIII- asrgacha yaratilgan musiqiy risolalarda, adabiy, tarixiy va badiiy manbaalarda maqomlar ustida ish olib borgan sozanda, bastakorlar, ular yaratgan kuy va ashulalar nomlari keltiriladi, ularning qaysi maqomga tegishli ekani, doira usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqa risolalarida keltirilgan "O'n ikki maqom" ning lad asosi olti maqomdagi shakliga deyarli mos keladi yoki ular juda yaqindir.

XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan musiqa olimlaridan Najmiddin Kavkabiyy va Darvishali Changiy risolalarida Buxoro xonligi davrida joriy etilgan "O'n ikki maqom" hamda ular asosida kuy va ashulalar bastalagan san'atkorlar haqida ma'lumotlar bor. Demak, bundan "O'n ikki maqom" O'rta Osiyoda XVII asrda ham qo'llanilgan, - degan xulosaga kelishi mumkin. Maqomlarning dastlabki namunalari Sharqda hozirgidek nota yozuvi bo'lmagani uchun bizgacha etib kelmagan. Shuning uchun ularni endilikda Shashmaqom kuylari asosida tasavvur etishimiz mumkin.

"O'n ikki maqom" ning Shashmaqomga munosabati masalasiga kelsak, ulardagi maqom va sho'balar nomi ko'pincha bir xil. Bu esa "O'n ikki maqom" dagi ayrim maqom va sho'balar olti maqomga birlashtirilib, yaxlit turkum holiga keltirilganidan darak beradi. Shashmaqom tarkibida avvalgi tizimdagi nomlar uchrashini hisobga olib, bu erda "O'n ikki maqom" va ularning tuzilmalarini sanab o'tamiz.

"O'n ikki maqom" tizimini quyidagi maqomlar hamda ularning tarkibiy qismlari sanalmish sho'ba va ovozlari tashkil etadi:

MAQOMLAR:

- | | |
|-------------|---------------|
| 1. Ushhshoq | 7. Rohaviy |
| 2. Navo | 8. Zangula |
| 3. Busalik | 9. Iroq |
| 4. Rost | 10. Isfaxon |
| 5. Husayniy | 11. Zirafkand |

- | | |
|---------------------|-------------------------------|
| 6. Hijoz | 12. Buzurg |
| SHO'BALAR: | |
| 1. Dugoh | 13. Avj |
| 2. Segoh | 14. Nayriz |
| 3. Chorgoh | 15. Mabarka' |
| 4. Panjgoh | 16. Rakb |
| 5. Ashiyran | 17. Navro'zi Sabo |
| 6. Bayotiy | 18. Xumoyun |
| 7. Navro'zi Arab | 19. Zovuliy |
| 8. Navro'zi Xoro | 20. Isfaxonak yoki Ro'yi Iroq |
| 9. Navro'zi Bayotiy | 21. Bastai Nigor |
| 10. Xisor | 22. Nihovand |
| 11. Nuhuft | 23. Javziy |
| 12. Uzzol | 24. Muhayyar |
| OVOZLAR: | |
| 1. Navro'z | 4. Gavasht |
| 2. Salmak | 5. Moya |
| 3. Gardoniya | 6. Shahnoz |
- deb yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.U. Kholmurodovna, RM Obidovna. Social norms, sanctions and personality. Вестник науки и образования. 2020 г. № 21-2 (99).
2. R.UI Holmurodovna, S Oqila. Makom art is a priority in the musical culture of Uzbekistan. Проблемы педагогики, 87-88.
3. УХ Рамазонова, ОМ Сайфуллаева. Развитие чувства ритма у детей. Проблемы науки, 49-51.
4. UR Kholmurodovna. Formation of publicistic performing skills in singing. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 36-40.
5. УХ Рамазонова, МЖ Эсанова. Подготовка молодых певцов к ансамблевому выступлению. Наука, техника и образование, 88-91.
6. ЎХ Рамазонова. Талабаларда маънавий-ахлоқий тушунчаларни шакллантириш, гуруҳ билан ишлаш ва уни бошқариш тамойиллари. Scientific progress 1 (5).
7. ДЮ Рузиев. Проектирование процесса обучения музыкальным произведениям в ансамбле. наука, техника и образование, 58-61.
8. Д Рузиев. Историческое развитие национальных инструментов. academy, 62-64.

9. DY Ruziyev. Bo'lajak o'qituvchida musiqiy tafakkurni shakllantirish. scientific progress 1 (5).
10. ДЮ Рузиев. Оркестр как средство музыкально-эстетического воспитания учащихся. academy.
11. DY Ruziev. Designing the learning process for musical works. international engineering journal for research & development 6 (icdsii), 6-6.
12. DY Ruziev. The role of the conductor in orchestral performance. web of scientist: international scientific research journal 1 (01), 66-71.
13. ДЮ Рузиев. Некоторые психологические особенности развития навыков игры на инструменте и подпевания. academy.
14. DY Ruziev. Ways of working on musical compositions. the american journal of social science and education innovations 3 (01), 436-440.
15. КБ Холиков. Обучение хоровому пению в рамках кружковой деятельности. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (№3), pp. 715-721.
16. КБ Холиков. Специальный барьер для заключительного этапа каденции как процесс музыкально-технической обработки произведения. Science and Education 2 (12), 710-717.
17. КБ Холиков. Актуальные задачи высшего профессионального образования и стратегии обучения по направлениям музыки и музыкальное образование. SCIENCE AND EDUCATION 2 (11), 1039-1045.
18. КБ Холиков. Строительство уникальных знаний и сооружений по музыке в высшей, учебных заведениях. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (6), 958-963.
19. КБ Холиков. Обширные знания в области музыкальных наук Узбекистана и порядка функционального взаимодействия в сфере музыке. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (6), 940-945.
20. КБ Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (6), 946-951.
21. КБ Холиков. Манеры пения хорового коллектива и анализ произведения музыки с подвижной структурой и комбинируемым материалом. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 550-556.
22. КБ Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 446-451.
23. КБ Холиков. Звуко-высотная организация и последовательность частей формы музыки. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 557-562.
24. КБ Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 440-445.
25. КБ Холиков. Характер музыки и результат смысловое содержание произведения. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 563-569.

26. КБ Холиков. Подбор аккордов в композиции и стремлении к более точной и однозначной фиксации в музыке. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 545-549.

27. КБ Холиков. Время поэтапного развития нотации. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 452-458.

28. КБ Холиков. Тяготение основа-основ в музыкальной композиции. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 459-464

29. КБ Холиков. Эффективные способы изучения музыкальных элементов в школьном обучении. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 108-113.

30. К.Б. Холиков. Патриотическое музыкальное воспитание детей младшего школьного возраста через музыкального образование: основные подходы и задачи. SCIENTIFIC PROGRESS 2 (4), 102-107.